

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| R.S.Shodiyeva | |
| Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini | 424 |
| M.G'.Ismoilov | |
| O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari..... | 429 |
| N.X.Raxmankulova | |
| O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati | 433 |
| M.Saminjonov | |
| Rasmiy-siyosiy qasamlar | 439 |
| A.A.Hakimov | |
| 1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi | 444 |
| Sh.T.Abbosova | |
| Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati | 448 |
| A.A.Parmonov | |
| Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati..... | 451 |
| S.M.Abdullayev | |
| Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati | 456 |
| S.M.Ro'zimurodov | |
| Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni..... | 460 |
| M.A.Мирзарахимов | |
| Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития..... | 464 |
| Z.H.Ubaydullayeva | |
| Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili | 467 |
| J.Xamroqulov | |
| Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish..... | 471 |
| N.O.Yunusaliyeva | |
| O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .. | 475 |
| N.I.Suleymanova | |
| Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati | 481 |
| Y.V.Lutfullina | |
| Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati..... | 486 |
| J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob | |
| Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish | 490 |
| D.T.Tursunova | |
| Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida | 497 |
| S.A.Sharipova | |
| Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida..... | 500 |
| K.И.Марайимова | |
| Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей..... | 506 |
| B.B.Djalalov, K.P.Uzakov | |
| Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida..... | 512 |
| M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov | |
| Ayrim geteroatomli aldehydlarni $Inbr_3/Et_3n/Et_2o$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni..... | 519 |
| A.Sh.Raximov | |
| Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi..... | 527 |

**AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLARNI SHAKLLANISHIDA OILAVIY
MAROSIMLARNING O'RNII****РОЛЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕРЕМОНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ НРАВСТВЕННО-
ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ****THE ROLE OF FAMILY CEREMONIES IN THE FORMATION OF MORAL AND
AESTHETIC VALUES****Ro'zimurodov Siroj Madatovich¹**¹Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti PhD**Annotasiya**

Ushbu maqolada axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanish masalalariga keng e'tibor qaratilgan bo'lib, unda oilada ma'naviy tarbiya masalalari va oilaviy marosimlar, an'analar mohiyati atroflicha yoritilgan. Xalqimiz ongi va hayotidagi oilaviy marosimlarga nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanishi va milliy qadriyatlarni hayotga tatbiq qilish tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования нравственно-эстетических ценностей через духовное воспитание в семье. Основное внимание уделяется природе семейных обрядов и традиций, а также анализируется процесс развития новых подходов к семейным ритуалам, отражающих национальные ценности. Статья освещает значимость этих ценностей в сознании и повседневной жизни народа, а также их влияние на формирование общественного сознания и культуры.

Abstarct

This article deals with the formation of moral and aesthetic values through spiritual education in the family. The focus is on the nature of family rituals and traditions, and the process of developing new approaches to family rituals that reflect national values is analysed. The article highlights the significance of these values in the minds and everyday life of the people, as well as their influence on the formation of public consciousness and culture.

Kalit so'zlar: Oila, axloqiy munosabatlar, urf-odat, ma'naviyat, farzand, tarbiya, qadriyatlar, ota-ona, an'ana, axloqiy-estetik qadriyatlar.

Ключевые слова: семья, нравственные отношения, традиция, духовность, воспитание, ценности, родители, морально-эстетические ценности.

Key words: family, moral relations, tradition, spirituality, upbringing, values, parents, moral and aesthetic values.

KIRISH

Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari mavjud bo'lib, bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftioriga aylangan milliy qadriyatlardir. Millatning boy tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti, urf-odati va marosimlari ham uning milliy qadriyatlarida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlarda millat, muayyan bir xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiati va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Shu o'rinda jamiyat axloqiy qiyofasini shakllantirish demokratik tamoyillarga asoslanib olib borilmoqda, avvalombor, iqtisodiy munosabatlarining yuksak axloqiy madaniyatga asoslanishini yaratish, milliy o'zligimizni diniy va dunyoviy qadriyatlar bilan uyg'unligini keng jamoatchilik ongiga yetkazib berish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi islohotlarda shaxsning axloqiy dunyoqarashini boy tajriba va ko'nikmalar bilan qurollantirish dolzarb nazariy-falsafiy masalalardan biriga aylandi. "Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qolib kelayotgan ma'naviy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, rivojlanib kelgan. Ularni uch ming yildan ortiq davrni mujassamlashtirgan xalqimiz sivilizasiyasi yaratgan"(1-752). Xalqimiz ongi va hayotidagi oilaviy marosimlarga nisbatan yangicha yondashuvlar shakllanishi lozim. Bunday yondashuv insonning axloqiy va estetik ong ishtirokisiz, axloqiy va estetik madaniyat ta'sirisiz bo'lmaydi. Shu o'rinda jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, albatta, axloqiy va estetik tafakkur ishtirokisiz sodir bo'lmaydi. Voqelik estetik munosabat axloqiy mezonlarni ham talab qiladi, axloqiy mezonlar esa estetik munosabat yo'nalishini belgilaydi, natijada shaxs ma'naviyatida, madaniyatida jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida sodir bo'layotgan jarayonlarga mos va xos

xususiyatlar shakllana boradi. Milliy qadriyatlar va marosimlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo'layotgan faoliyat turlari va rasm-rusumlarga baho beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJA

Milliy marosimlari va an'alarida ko'proq ayollarning roli ortib, ularda milliy marosimlariga yangiliklar olib kirish namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda "Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi"(2). Biz azaldan jamiyatda ayollarning hurmat-e'tiborini yuqori o'ringa qo'yib, oilada ayolning rolini oshirib, nikoh marosimlarini ko'proq milliy urf-odatlariga asoslanib bajarishga intilganmiz. Milliy marosimlari jarayonida yigitlar qizlarga estetik munosabatda bo'lishga intiladilar va axloqiy me'yorlar negizida o'z munosabatini bildirishadi. Inson oila muhitida jamiyat a'zosi sifatida tarbiya topadi. Oilada sog'lom muhit va sog'lom munosabat qaror topsa oilada ham, millat va jamiyatda ham sog'lom muhit mavjud bo'ladi. Inson ma'naviyatining poydevori oila muhitida shakllanib, jamiyat hayotida har bir oilani mustahkamlash uchun eng avvalo yoshlarga o'zbek oilalarining urf-odatlarini, udum va an'alarini, axloqiy madaniyatini yoshlikdan o'rgatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a'zolarining oddiy va chiroyli kiyim-bosh tanlab kiyinishi, didli, farosatli bo'lishi oilaga fayz kiritadi. Turmush estetikasida yoshlarning oila qurish marosimlari katta rol o'ynaydi. To'y o'zbek xalqining jon-dildan sevuvchi azaliy marosimlaridan biridir. To'y bo'ladigan xonadonga barcha mahallalarda to'ydin oldin qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar yig'ilib, "maslahat oshi" tashkil qilinadi. To'yni qanday o'tkazish, quda tomon bilan qanday muomala qilish, bazmni qanday uyishtirish singari masalalar muhokama qilinadi.

"Keyingi vaqtlarda to'y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlar xotiralariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishda mamlakatimizning ko'p joylarida shuhratparastlik, dabdabozlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish, el-yurt odatlari va an'alarini mensimaslik, o'zini ko'z-ko'z qilish, atrofda yashayotgan odamlarning hol-ahvolini inobatga olmaslik kabi eskidan qolgan asoratlarga yo'l qo'yilmoqda"(3-67). Bunday dabdabali marosim va ma'rakalar yoshlar ongiga salbiy ta'sir o'tkazadi, ularning axloqiy-estetik madaniyati va didining sog'lom o'sishiga xalal beradi. Shu nuqtai nazardan oiladagi axloqiy tarbiya ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofda yashovchilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash kabi axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat. Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo'lgan. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasining allasini tinglab, ularning mehriga qonib voyaga yetganlar. Insonning oliyjanob histuyg'ulari, go'zal fazilatlarini yuqori qo'ygan o'zbek xalqining estetik ideallari, tasavvurlari, tushunchalari xususida bebaho va noyob o'tmish merosi bor. Unga amal qilish shart, albatta. Lekin shaxsning estetik ideallari, estetik madaniyat tushunchasi har xil bo'lishi ham tabiiy. Bunday "Estetik ideallarning turli kishilarda turlicha bo'lishi esa tabiiy ravishda inson tabiatining murakkab va ko'p qirrali ekanligining ifodasidir"(4-56). Oilalarda qachonki ideallar mushtarakligi bo'lsa, qachonki yoshlarning orzu va maqsadlari bir nuqtada tutashsa, bu tutashgan nuqta muhitini farzand deb atalmish mo'jiza bezab tursa, bunday oilalarning estetik va axloqiy tushunchalarida ziddiyat bo'lmaydi.

Qadimda milliy marosimlarida to'y marosimidan ko'ra, uning axloqiy, etnopsixologik omillari ustuvorligi kuzatilgan. Nikoh marosimlari tarixiy davrlar almashinuvi natijasida turli zamonaviy ko'rinishlarni qabul qilib, to'y marosimlarida esa majburan yoki ixtiyoriy tarzda turli milliy qadriyatlar, yot odatlar kiritib borilgan. Xususan, sho'rolar davrida milliy qadriyatlarining sofligini buzish, ma'naviyatini axloqiy aynish holatiga keltirish natijasida turli nomilliy urflar ham shakllangan. Nikoh to'ylarining ko'pchiligi mazkur rejalarini amalga oshirish uchun juda ham qulay va juda ham samarali tizimga aylangan edi.

Jamiyatimizda azaldan estetik qadriyat sifatida shakllangan dam olish vazifasi mavjud. Dam olish va hordiq chiqarish shaxsning o'z ixtiyoridagi ishi bo'lsa-da, u jamiyatdan, ijtimoiy munosabatlarda sodir bo'layotgan o'zgarishlardan tashqarida kechmaydi. Faylasufning fikriga ko'ra, zamonaviy milliy-ma'naviy qadriyatlarining ommalashgan ko'rinishlaridan biri nikoh to'ylari va boshqa marosimlarni o'tkazishda musiqa va ashulalardan foydalanishdir.

Mustaqillik tufayli bu azaliy qadriyatimiz ham yangi estetik ko'rinishlarga ega bo'lmoqda. To'y-marakalar, marosimlarda musiqa asboblarining quloqni teshib yuborish darajasidagi jazavasi azaliy to'y marosimlarimizning estetik ruhiga mos kelmasligi ham ma'lum. Demak, tarixiy va zamonaviy ma'naviy qadriyatlar xalq ruhi va faoliyatiga asabiy emas, zavqiy kayfiyat bersa, insonni ilhomlantirib, hayotga, mehnatga va farog'atga chorlasa, jamiyat va shaxs estetik madaniyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi. Inson ma'naviyatining poydevori oila muhitida shakllanib, jamiyat hayotida har bir oilani mustahkamlash uchun eng avvalo yoshlarga o'zbek oilalarining urf-odatlarini, udum va an'analarini, axloqiy madaniyatini yoshlikdan o'rgatib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslangan kichik guruhidir. Oila yoshlar uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Ma'naviy madaniyatning milliy shakllari orasida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar orasida nikoh marosimlari alohida o'rin tutadi. Ushbu ulkan ma'naviy meros asosida kishilarning o'zaro munosabatlarida mehr-oqibatni shakllantirish va mustahkamlash azaldan o'zining samarali natijalarini berib kelgan. Misol uchun, biror-bir qarindoshlarini tanimaydigan o'spirin dono-katta avlodning sa'y-harakati bilan muayyan to'y-hasham, maraka, marosim yohud milliy urf-odatlariga jalb qilinishi natijasida nafaqat o'z yaqinlarini taniy boshlaydi, balki ularga nisbatan iliq munosabat, mehr tuyg'ulari yuzaga kelishi ta'minlanadi. Shu sabab, Yangi O'zbekistonda oila va nikoh bilan bog'liq axloqiy-estetik qadriyatlar asosida farzandlarimizni ulg'aytirishimiz lozim. Yurtimizning har bir hududida o'ziga xos go'zal urf-odatlarining axloqiy va estetik xususiyatlari nikoh marosimlarini yanada boyitib, o'zida ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarni mujassam etgan. Erix Frommning fikricha, "... avvalo XX asrda "muhabbatga munosib" siymoni topishga munosabat keskin o'zgardi. Viktorian davrida, muayyan tamoyillarga sodiq boshqa qator tamaddunlarda bo'lganidek, keyinchalik nikohga olib keladigan muhabbat bevosita shaxsiy kechinma bo'lmagan. Aksincha, yigit va qiz bitishuv asosida nikohlangan – yoki biror-bir nufuzli oilalar yoxud sovchi vositachiligida yoki vositalarsiz nikohlangan. Yigit-qizlar ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda nikohdan o'tishgan. Muhabbat esa nikohdan keyin tug'ilib, kuchayib boraveradi, degan aqida hukmronlik qilgan"(5-125). Insonlarni sevib va sevilib yashash hayotni chin insoniy va zavqli, huzurbaxsh qiladi. Insonlarni sevlash, e'zozlash orqali hayotni sevlash, e'zozlash mumkinligi estetik qadriyatning biridir. Ammo sevilish doimo antropologik va psixologik muammo bo'lib kelgan. Quyida insonlarni sevlash va sevilib yashash murakkab voqealiklar ekaniga ishora qilinadi: "Baxt va muhabbat bir-birini taqozo etuvchi ruhiy hodisalar ekan, ishqiy yo'q odam to'liq baxtli bo'lolmagani kabi, muhabbat egasini mutlaq baxtsiz deb bo'lmaydi. Bizningcha, baxtli bo'lish uchun kishi ishqiy tushgan odami yoki narsasiga, albatta, erishishi shart emas"(6-145). O'smir yigit va qizlar balog'at va yetuklik yoshiga yetganidan boshlab bo'lajak umr yo'ldoshining sifatlarini xayolan belgilay boshlaydi. Shaxs sifatida ideal obraz qidiradi. Insonlarning bu sifatlarga qarashlari xarakter, olgan tarbiyalari, dunyoqarashlari va qanday qadriyatlariga amal qilishlariga ko'ra turlichadir. Baxtli hayot moddiy hayotda deb tarbiya olgan bo'lsa, xuddi shunga intilish yoki haqiqiy baxt sevlash turmush qurish, ma'naviy jihatdan yetuk (masalan, oliy ma'lumoti mavjud) kishiga intilishini ko'rish mumkin. Farzandlarning sog'-salomatligi va tarbiyasi, asosan, ayollar zimmasidadir. Bular musulmon ayollariga xos qadriyatlardir. "Muqaddas ahd", bog'lanish er va xotin oilaning tayanchiga aylangach, ulardan tashkil topgan ijtimoiy birlik jamoatchilik markazi vujudga keladi. Ana shu markazning tayanchi oilaning o'zaro jipsligiga bog'liq. Ulardan qaysi biri ushbu jipslikka xiyonat qilsa, oila buziladi. Bu to'g'risida "Nur surasi"da islomiy oilalarda barpo qilinishi zarur bo'lgan toza va pokiza muhit batafsil bayon qilinadi"(7-27-28). Islomda tana badanni ozoda tutish, sog'lom turmush tarzi va sog'lom oila tuzish sharti ekani ta'kidlanadi. Yosh oilaning buzilishi nafaqat er-xotin, shuningdek, yosh farzandlar uchun salbiy holatlarni yuzaga keltiradi. Ma'naviy ruhiy jihatdan sog'lom, ota va ona hamkorligida, ahilligida o'sishi zarur bo'lgan farzandlar o'zini kamsitilgan, siqilgan sezadi. Ushbu salbiy psixologik ta'sir ularning ongida bir umrga saqlanib qoladi. "Avesto"da zardushtiylikning oltin qoidalardan biri oilani muqaddasligi sanalgan. Shu bilan birga "Avesto"da baxt g'oyasi osoyishta hayot, oila, muhabbat, sadoqat, halol mehnat tushunchalari bilan bog'langan. Oila qurish xudoning irodasiga bo'ysunish bilan mos kelishi, lekin nikohsiz muhabbatning qat'iy taqiqlanishi, ayollar ham erkaklar ham oilasiga xiyonatlari uchun 800 darra

bilan jazolanishi alohida ta'kidlanadi. Unda diniy e'tiqod, mehnatsevarlik, adolat fikrdagi, so'zdagi va amaldagi beg'arazlik eng oliy axloqning talablari hisoblangan"(8-15). Shu jihatdan O'zbek oilasi esa o'z etnoan'analari, tarixiy-madaniy tajribalarini ustun qo'yadi, ularga tayanadi. Shu asosda ertangi kun taraqqiyoti uchun oila va farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratganlar. Insonning shirin so'zligi kishining tarbiyalanganligidan guvohlik bersa, so'zga boyligi, chechanligi, ma'nodorligi uning o'qimishli, bilimdonligini ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilaviy marosimlarida shaxs va jamiyat estetik axloqiy madaniyati shakllanib, rivojlanib boradi va oilada ota-ona o'z farzandlari oldida mas'ul bo'lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, mehnatsevarligi, axloqiy fazilatlarini asta-sekin ularning farzandlariga o'tib, ularning barkamol inson bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oiladagi qadriyatlar negizida muayyan hududda yashayotgan elatlar jamiyat va mamlakatning umumiy estetik madaniyatini va milliy va umumbashariy ma'naviy-estetik qadriyatlarni yaratishda birlashadilar va axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishiga xizmat qiladi. Ota-onalarning farzand oldidagi burchi haqida sharqona tarbiyaning yozilmagan qonunlari ishlab chiqilgan bo'lib, bunga ko'ra ota-ona chaqaloq tug'ilgan vaqtidan boshlab uning tarbiyasi bilan shug'ullanishi, unga chiroyli ism qo'yishi, voyaga yetgach unga biror kasb-hunar o'rgatishi, balog'atga yetgach uni to'y qilib uylantirishi yoki turmushga berishi oilaviy qadriyatlardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Т.: “Маънавият”, 2019. – Б.752.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро хотин-қизлар байрамига бағишланган учрашувдаги нутқи// <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-khal-07-03-2018>
3. Каримов И.А. Адолатли жамият сари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998, - Б. 67.
4. Махмудов Т. Гузаллик ва ҳаёт. Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, - Б. 56.
5. Блез Паскаль, Хосе Ортега де Гассет, Эрих Фромм. Севги санъати. – Тошкент: O'zbekiston. 2011. – Б. 125.
6. Зиямухамедов Б. О, Ҳазрати инсон: Саодатга эришиш йўллари – Тошкент: «Тамaddon» нашриёти, 2015. – Б.145.
7. Хусейнова А. Ислом таълимотида инсон муаммоси. Тошкент: БДИ, 2007. 27-28 б.
8. Маркаев З.Э, Бекчанов С.И, Айтбоев М.Ю Фалсафа. Уқув қўлланма. — Тошкент: 2019. Б. 15.